



IN THE 60S AND 70S OF THE XIX CENTURY, THE DUNGAN UPRISEINGS IN THE EAST TURKESTAN REGION

Z. S. Shomansurova

Lecturer

National University of Uzbekistan

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Muslim Rebellion, Alexander Konstantinovich Gaines, Karl Kazimirovich Gutkovsky, Vernago Fortress, Muhammad Seyid-Akhmat, Azin Khoja, Jungaria, Beijing, Chugachak.

Received: 13.03.25

Accepted: 15.03.25

Published: 17.03.25

Abstract: In the 1860s and 1870s, popular uprisings against the Qing Empire took place throughout the East Turkestan region. The rebellion rapidly spread across the entire region. Although it is referred to in history as the “Muslim Rebellion,” in reality, these movements were an uprising of peoples dissatisfied with the policies of the Qing Empire in East Turkestan. The main participants of the rebellion were Muslims, including the Dungans, Uighurs, and Kyrgyz, whose goal was to fight against the oppression of the Qing Empire and to restore their independence. As a result of these uprisings, new short-lived political structures emerged in the region, and East Turkestan gained significant geopolitical importance. The Russian Empire, in particular, closely monitored the situation on its southeastern borders and sought to protect its interests.

XIX ASRNNING 60-70 YILLARIDA SHARQIY TURKISTON MINNTAQASIDA DUNGANLAR QO‘ZG‘ALONLARI

Z. S. Shomansurova

O‘qituvchi

O‘zbekiston Milliy universiteti

Toshkent, O‘zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: Musulmonlar qo‘zg‘oloni, Aleksandr Konstantinovich Geyns, Karl Kazimirovich Gutkovskiy, Vernago qal’asi, Muhammad Seyid-Axmat, Azin xo‘ja,

Annotatsiya: XIX asrning 60-70-yillarida Sharqiy Turkiston mintaqasida Sin imperiyasiga qarshi xalq harakatlari yuz berdi. Qo‘zg‘olon qisqa vaqt ichida butun mintaqani

Jungriya, Pekin, Chugachak.

qamrab oldi. Tarixda “Musulmonlar qo‘zg‘oloni” deb nom olgan bo‘lsa-da, aslida bu harakatlar Sin imperiyasining Sharqiy Turkiston hududida olib borgan siyosatidan norozi bo‘lgan xalqlarning bosh ko‘tarishidir. Qo‘zg‘olonning asosiy ishtirokchilari islom diniga e’tiqod qiluvchi dunganlar, uyg‘urlar va qirg‘izlar bo‘lib, ularning maqsadi Sin imperiyasi zulmiga qarshi kurashish va o‘z mustaqilligini tiklash edi. Ushbu qo‘zg‘olonlar natijasida mintaqada qisqa muddatli yangi siyosiy tuzilmalar shakllandi va butun Sharqiy Turkiston geosiyosiy ahamiyat kasb eta boshladi. Ayniqsa, Rossiya imperiyasi janubiy-sharqiy chegaralarida yuzaga kelgan vaziyatni diqqat bilan kuzatib bordi va o‘z manfaatlarini himoya qilishga intildi.

В 60-70-Х ГОДАХ XIX ВЕКА ВОЗНИКЛИ ДУНГАНСКИЕ ВОССТАНИЯ И ВОСТОЧНО-ТУРКЕСТАНСКАЯ ОБЛАСТЬ

3.С.Шомансурова

преподаватель

*Национальный университет Узбекистана
Ташкент, Узбекистан*

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Мусульманское восстание, Александр Константинович Гейнс, Карл Казимирович Гутковский, крепость Вернаго, Мухаммад Сеид-Ахмат, Азин Ходжа, Джунгария, Пекин, Чугучак.

Аннотация: В 60-70-х годах XIX века на территории Восточного Туркестана произошли народные восстания против империи Цин. Восстание быстро охватило весь регион. Несмотря на то, что в истории оно известно как «Мусульманское восстание», на самом деле это было восстание народов, недовольных политикой империи Цин в Восточном Туркестане. Основными участниками восстания были мусульмане — дунгане, уйгуры и кыргызы, ставившие своей целью борьбу против гнeta империи Цин и восстановление собственной независимости. В результате этих восстаний на территории региона появились новые, пусть и кратковременные, государственные образования, а Восточный Туркестан приобрел важное геополитическое значение. Российская империя пристально следила за ситуацией на своих юго-восточных границах, стремясь защитить свои интересы.

Mavzuning dolzarbligi: XIX asrning 60 yillarida Xitoy tarixida katta iz qoldirgan “Musulmonlar qo‘zg‘oloni” Sin imperiyasining Sinszyan hududida yuz berdi. Qo‘zg‘oloning asosiy ishtirokchilari islom diniga e’tiqod qiluvchi -dunganlar, uyg‘urlar, qирг‘излар ташкил etgани учун qo‘zg‘olon shunday nom oldi. Sin hukumatining ushbu hududlarda olib borgan siyosati tufayli aholining qattiq norozi bo‘lishi bilan birga oddiy xalqni bosh ko‘tarilishiga sabab bo‘ldi. Qisqa vaqt ichida butun hudud bo‘ylab inqilobiy harakatlar qamrab oldi. Bu esa o‘z navbatida nafaqat mamlakat bo‘ylab balkim, chegaralardagi ijtimoiy-iqtisodi va siyosiy tizimni izdan chiqishiga olib keldi. Oqibatda, inqilob natijasida qisqa muddatga bo‘lsa ham ushbu hududlarda yangi mustaqil davlatlarni paydo bo‘lishiga olib keldi. O‘z navbatida, XIX asrning dunyo geosiyosiy maydonida Sharqiy Turkiston mintaqasi G‘arb davlatlari учун ham, ayniqsa, Rossiya imperiyasi учун o‘ta muhim hisoblangan. Sababi, aynan Rossiya imperiyasining janubiy-sharqiy chegaralari Sin imperiyasining tarkibidagi Sharqiy Turkiston hududida to‘qnashardi. Shu sababli, Rossiya imperiyasi janubiy-sharqiy chegaralarida yuzaga kelgan tartibsizliklarga sabab bo‘lgan ushbu inqilob harakatlar haqida doimo Orengburg general gubernatorligidan ma’lumotlar olib turgan.

XIX asrning 60-70-yillarida Sharqiy Turkistonda Dunganlar qo‘zg‘oloni yuz bergan bo‘lib, bu voqealar mintaqaning siyosiy va ijtimoiy hayotida muhim o‘rin tutadi. Quyida ushbu mavzuga oid adabiyotlar tahlili, tadqiqot metodologiyasi hamda tahlil va natijalar keltiriladi.

Adabiyotlar tahlili: Dunganlar qo‘zg‘oloni haqida turli manbalarda ma’lumotlar mavjud. Masalan, Guliston davlat universiteti ichki ta’lim portalida e’lon qilingan ma’ruzada Sharqiy Turkistonda yuzaga kelgan Yettishahar davlati hukmdori Yoqubbekning faoliyati haqida so‘z yuritiladi. Ushbu ma’ruzada Dunganlar qo‘zg‘oloni bilan bog‘liq voqealar ham yoritilgan bo‘lishi mumkin. Bundan tashqari, Toshkent Davlat Sharqshunoslik institutida tayyorlangan “Markaziy Osiyo tarixi zamonaviy tarixshunosligidagi yondashuvlar” nomli darslikda Markaziy Osiyo tarixshunosligining dolzarb muammolari, jumladan, Dunganlar qo‘zg‘oloni haqida ham ma’lumotlar keltirilgan bo‘lishi mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi: Dunganlar qo‘zg‘olonlarini o‘rganishda quyidagi tadqiqot metodlari qo‘llanilishi mumkin:

- Tarixiy yondashuv: Voqealarning xronologik ketma-ketligini aniqlash va ularning sabab-ovqibatlarini tushunish учун tarixiy manbalarni tahlil qilish.
- Manbashunoslik: Qo‘zg‘olonlar haqidagi birlamchi manbalar, masalan, arxiv hujjatlari, xotiralar va davr matbuotini o‘rganish orqali voqealarning ishonchlilagini ta’minlash.
- Tarixshunoslik tahlili: Turli olimlarning ushbu mavzu bo‘yicha qarashlarini solishtirish va tahlil qilish orqali mavzuni chuqurroq o‘rganish.

Tahlil va natijalar: Dunganlar qo‘zg‘olonlari Sharqiy Turkistonning siyosiy va ijtimoiy hayotiga sezilarli ta’sir ko‘rsatgan. Ushbu qo‘zg‘olonlar natijasida mintaqada yangi davlat tuzilmalarining paydo bo‘lishi, mahalliy aholining turmush tarzida o‘zgarishlar yuz bergan. Shuningdek, qo‘zg‘olonlar mintaqadagi etnik munosabatlarga ham ta’sir etib, keyingi davrlarda siyosiy jarayonlarga zamin yaratgan.

Yuqoridagi adabiyotlar va tadqiqot metodologiyasi asosida Dunganlar qo‘zg‘olonlarini o‘rganish mintaqaning tarixini chuqurroq anglashga yordam beradi.

Xitoy bilan chegaradosh Semipalatinsk viloyatiga jo‘natilgan podpolkovniklar Aleksandr Konstantinovich Geyns va Karl Kazimirovich Gutkovskiy qo‘shti Xitoydagi dungan qo‘zg‘oloni haqida faol materiallar to‘plashdi va bir qancha maqolalar nashr etilgan. Maqolada berilgan ma’lumotga ko‘ra, 1865 hamda, 1866 yillarda Sharqiy Turkistonga yuborilgan komissiyalarning bergan xabarlari shunday ma’lumotlarni beradi. Tashqi ishlar vazirligi tomonidan Fyodor Karlovich Girs boshchiligidagi 1865 yilda qirg‘iz dashtiga komissiya yuborildi. Uning gaplariga ko‘ra: Dunganlar qo‘zg‘oloni bizning chegaramizga yaqin nuqtasida bo‘lib o‘tmoxda. Semipalatinsk viloyatida to‘rt oy bo‘ldik. To‘g‘ridan-to‘g‘ri burchlarimizdan tashqari, biz G‘arbiy Xitoya haqiqiy inqilobni, O‘rta Osiyo taqdiriga ulkan ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan inqilobni keltirib chiqargan sabablar bilan qiziqmay qolmadik. Qo‘zg‘olonchilarga juda yaqin bo‘lganimiz sababli, biz Dunganlar qo‘zg‘oloning ma’nosi, xarakteri va kuchini tushuntirib beradigan har qanday imkoniyatdan foydalanishga harakat qildik. Orenburglik a’zo-deputat general-mayor Gutkovskiy va men, ayniqsa, xursandchilik bilan bir necha bor dungan qo‘zg‘oloni bilan yaqindan tanish bo‘lgan odamlar bilan bu mavzuda gaplashishga muvaffaq bo‘ldik deb yozgan Aleksandr Konstantinovich Geyns.

Shunday qilib, komissiya a’zolari Atbanov urug‘laridan bo‘lgan polkovnik Sulton Tezek, hamda, Turkistondan kelgan savdogarlar karvonida, Xitoyning ahvolini yaxshi biladigan qashg‘arlik savdogar va Vernago qal’asi oqsoqoli Muhammad Sayid-Axmadning avlodni, Azim xoja kabi insonlar orqali Jungariyada bo‘lib o‘tayotgan qo‘zg‘olon haqida diqqat bilan bilvosita qiziqib borishdi. Rossiya imperiyasining bu voqealari bilan bevosita qiziqishi bejiz emas edi. Sababi, 1860 yilda hamda, 1864 yillarda imzolangan “Pekin” va “Chugachak” shartnomalari o‘rtadagi chegara masalalari bilan birgalikda, ijtimoiy-iqtisodi masalalarni tartibga solishga qaratilgan edi. Sinszyan hududida yuz bergan bu hodisalar esa o‘rtadagi masalalarni oxirgacha hal qilishga to‘sqinlik qilib, aksincha yuqoridagi muammolarni yanada avj olishiga olib keldi. Komissiya Semipalatinsk viloyatida bo‘lgan davrda Xitoy chegaralaridan Kizyaev urug‘iga mansub qirg‘izlar va Odetsk polkining qalmoqlari bizning hududimizga qochib o‘tishdi. Ular ko‘rganlari va eshitganlari haqida bizga bajonidil aytib berishdi. Ayniqsa, bu borada yarim

hukmdor Kizyaev sultonı, jangchi Botir Abulfayozov bizga foydali bo‘ldi. Qolaversa, Xitoyni yaxshi bilgan Kopal savdogarlari Nig‘mat Ulla va Karim Yoqubovlar ham Xitoydagи voqealar haqida so‘zlab berishdi. Xo‘sh, Sinszyandagi qo‘zg‘alonning boshlanishining sabablari nimalardan iborat edi. Qo‘zg‘alon alangasi sharqdan g‘arb tomon Sichuaning markaziy rayonlaridan, viloyatdan Gansu, Shansi, Shensi va u yerdan Sinszyanga yoyildi. G‘arbiy Xitoydagи qo‘zg‘olonning boshlang‘ich bosqichida qo‘zg‘olonning asosiy etnik yadrosi bo‘lgan dunganlar - tarixiy-etnografik adabiyotlarda xuey nomi bilan mashhur bo‘lgan islom diniga e’tiqod qilgan etnik xitoyliklar edi. Yana dunganlarning urf odatlari, diniy qarashlari Chokan Valixonovning qo‘lyozmasida va G‘uljadagi Rossiya imperiyasining bosh konsuli, Xitoy hayoti bo‘yicha taniqli mutaxassis janob Ivan Ilich Zaxarovdan ba’zi tafsilotlar bor. “Dunganlar xitoycha kiyim kiyishgan, xitoycha rangga ega va xitoycha gaplashgan. Ular nihoyatda qattiqqo‘l va dindor musulmonlar ekani ma’lum. Dunganlar sunniylar, lekin ular turli e’tiqodlarga amal qiladilar: ba’zilari Imom Shofiy, boshqalari Imom Hanifa ta’limotiga amal qiladilar. Dungan masjidlarida duolar arab tilida o‘qiladi, sharh va tushuntirishlar esa xitoy tilida. Dunganlar mo‘ylovlarini musulmoncha qirqadilar, sharob va aroq ichmaydilar, afyun va tamaki chekmaydilar. Markaziy Osiyoda ular o‘zlarining halolligi bilan mashhur, ayniqsa savdo-sotiq ishlarida. Dunganlar qizg‘in, mag‘rur, janjallahsganda o‘zlari bilan olib yurgan pichoqlarini darrov qo‘liga oladilar”.

Shu bilan birga, o‘shanda ular o‘zlarini "turgenlar," xitoyliklar esa ularni "xoy-xoy" - musulmonlar deb atashgan. Sin hukumati bu xalqning mag‘rur va mustaqil xarakterini sindirishga bir necha bor urindi. XIX asr boshlarida Dungan erkaklarini, bir vaqtlar xitoy manjurlari kabi, itoatkorlik belgisi sifatida soch o‘rashga, ayollarni esa oyoqlarini bint bilan bog‘lashga; qizlarini xitoyliklarga berishga majbur qilishdi. Dunganlarga qarshi olib borilgan siyosat, yuqorida ma’lumotlar bilan bir qatorda quyidagi ma’lumotlar orqali bu isyonning boshlanishiga sabab bo‘lgan asl mohiyatini ko‘rish mumkin.

Ya’ni, Xitoyliklarning dunganlarga boshqa buddist fuqarolardan pastroq odamlar sifatida qarashiga to‘sinqlik qilmadi. Shuning uchun dunganlar nafaqat Xitoydagи hukmron xalqlar, balki bosib olingan boshqa qabilalar bilan solishtirganda ham ko‘p miqdorda soliqlarga tortilgan. Ehtimol, Dunganlar va imperiya shaharlarining qolgan aholisi o‘rtasida mavjud bo‘lgan keskin farqni susaytirmoqchi bo‘lgan Manjuriya hukumati, iloji boricha, Dungan hayotining urf-odatlari va ichki tartibiga to‘xtalib o‘tdi. Shunday qilib, asr boshida imperator farmoni chiqdi, unga ko‘ra dunganlar uzun sochlari qo‘yishlari kerak edi, qizlari esa xunuk xitoy oyoqlariga ega bo‘lishlari kerak edi. Xuddi shunday, dunganlarni o‘z qizlarini musulmon bo‘lmagan xitoylarga turmushga berishga majburlash uchun bir qancha ma’muriy tajribalar o‘tkazildi. Albatta, Sin imperiyasi

tomonidan Sharqiy Turkiston aholisi uchun olib borilgan xaqratnomus siyosat o‘z navbatida dungan xalqini manjurlarga qarshi adovatini ortishiga sabab bo‘ldi. Shu bilan bagdaxan hukumati hatto o‘z aholisiga va umuman, unga bo‘ysunuvchi barcha muslimmonlarga, istisnosiz, Xitoy mulkini tark etib, o‘zlarining diniy burchlarini - Ka‘ba ziyoratiga borishlariga ruxsat bermaydi. Sin imperiyasi hududida yuz bergan qo‘zg‘alonlarning avj olishini Rossiya imperiyasi diqqat bilan kuzatib bordi. Bunday vaziyatda Rossiya hukumati qo‘shni Sin imperiyasining ichki ishlariga aralashmaslikka qaror qildi. 1864 yil 1 avgustdagি Tashqi ishlar vazirligining Osiyo departamenti direktori P.N. Stremouxovaning so‘zlariga ko‘ra, "bizning hukumatimiz Xitoy kuchini qo‘llab-quvvatlashni Rossiya manfaatlariga zid deb hisoblab, isyonchilarga nisbatan betaraf qolishga qaror qildi"deb aytadi."

Xo‘sh, dunganlar qo‘zg‘alonining boshlanishiga sabab, yuqorida ta’kidlab o‘tilgan harakatlar deb aytamiza. Bundan tashqari, 1862 yilda sodir bo‘lgan savdo-sotiq rastasida manjurlar va dunganlar o‘rtasida nizo chiqdi. Unga ko‘ra, Dunganlardan biri negadir Manjur oldidagi qarzini to‘lashni istamadi. Ikkinchisi uni omma oldida sharmanda qildi. Keyin dungan qilichini chiqarib, Manjurning qornini yorib yubordi. O‘ldirilgan odamning tarafdorlari bunga javoban dunganni o‘ldirishgan, mol-mulki va uyini butunlay talon-toroj qilganlar. Bu holat Singan-Fuda yashagan dunganlar va manjurlar o‘rtasidagi umumiyligini qirg‘in signali bo‘lib xizmat qildi. Isyoning boshlanishida ikkalasining soni deyarli teng bo‘lishiga qaramay, afyun urushidan holdan toygan, butun kuchini yo‘qotgan manjurlar munosib qarshilik ko‘rsata olmadi oqibatda, qo‘zg‘olon muvaffaqiyatli bo‘lganligi haqidagi xabarni eshitib, yuqorida tilga olingan Savunning o‘g‘li, 21-yoshli Soxunjon Salardan Singan-Fuga yetib keldi va qo‘zg‘olonchilarining qo‘mondonligini o‘z qo‘liga oldi.

Dungan qo‘zg‘oloni shiddat bilan Shansida boshlanib, Gansu, Sichuan va xatto Yunnanga tarqalishi va qo‘zg‘alonchilarining qo‘li baland kelishining sabablaridan biri sifatida shuni keltirib o‘tishimiz mumkin. Ya’ni, Jungariya bosib olinganidan beri, Urumchi tumanida Xitoy qo‘shinlari korpusi, yashil bayroq [luqing] qo‘shinlari deb atalmish, erkin yo‘llanma askarlardan iborat... aslida xalqdan iborat edi. Imtiyozli harbiy sinf [qiren] - manjurlar va mo‘g‘ullar yollanma askarlari bilan birga, eng ko‘p dunganlar xizmat qilgan edi. Ofitserlarning aksariyati ham xuddi shu qabiladan edi, hatto korpus komandirining yordamchisi ham dungan edi. Bu ma’lumot orqali shuni bilish mumkinki, Sharqiy Turkiston aholisi, jumladan, dunganlarning harbiy salohiyatlari bo‘lgan. O‘z navbatida bu dunganlarning g‘olib bo‘lishi uchun sabablardan biri bo‘ldi.

Pekindan 1000 manjur va tartibni tiklash buyrug‘i bilan jo‘natildi; ammo bu otryad shaharga yaqinlashgan zahoti qo‘zg‘olonchilar tomonidan vayron qilingandan so‘ng, 10 000

kishilik yangi qo'shinlar korpusi keldi ammo u ham birinchilarning taqdirini boshidan kechirdi. Singan-Fuga 40 ming kishilik qo'shin yuborilishiga qaramay manjur qo'shinlarining mag'lubiyati bilan yakunlandi. Qo'zg'olon asta-sekin shimoli-g'arb tomon harakatlana boshladi. Bu qo'zg'olon Sin imperiyasi uchun juda xavfli edi, sababi bu yerdagi xalq etnik jihatdan qolaversa diniy qarashlari dunganlardan tubdan farq qilgan taypin va sibolarning ham bu harakatlar uchun birlashishiga sabab bo'ldi. Butun Salar jamoasi Shingan-Fudan o'rnak oldi. Natijada, xitoyliklarga dushman bo'lgan siyosiy-diniy targ'ibot uzoq vaqtadan beri dungan aholisi orasida Dungan xo'jalari va imomlari "dinga qarshi urush" (g'azovot) e'lon qildilar, barcha erkaklarni urushga chiqishga, o'z jonlari va mol-mulklarini qurban qilishga da'vat etdilar. Fanatizm shu qadar kuchli ediki, dunganlar Sin qo'shinlarining zARBALARI ostida u yoki bu shaharni tashlab ketar ekanlar, o'z xotinlari va bolalarini o'ldirar edilar. Qo'zg'olonchilar xitoy kiyimlarini O'rta Osiyo shahar aholisining kiyimlariga ("Sart kiyimlari") almashtirdilar. Masjidlar qo'shinlar va tinch aholini ta'minlash boshqarmasi markaziga aylandi. Gansudan qo'zg'olon alangasi Sinszyanga tarqaladi. 1864-yilning yozida Dungan harbiy qismlari qo'zg'olon ko'tardi.

Avvaliga qo'zg'olonchilarning qo'lida tayoq, to'sar, to'qmoq, kabi boshqa qurollari bo'lmasa-da, shunga qaramasdan ularga nisbatan yaxshi quollangan dushmanlariga hujum qilishdan qo'rqedilar. To'qnashuv natijasida dunganlar sekin asta quroq va qal'alarmi tortib olishni boshladilar. Masjidlarda to'plangan mablag'lardan askarlarni, ularning oilalarini qo'llab-quvvatlash va dushmanlarga qarshi kurashni davom ettirish uchun xarajatlarni qoplash uchun g'azna tuzildi. Bundan tashqari, markaziy pul omborlari tashkil etilib, ular har bir masjiddan olingan mablag'ning bir qismini va manjurlardan olingan barcha o'ljalarni to'plangan edi. Shunday g'aznalardan, Ili viloyatida uchta asosiy g'azna mavjud: Kuldja, Tugus-Tagau va Bayantsay. Boshqa joylarda asosiy pul omborlari Urumchi, Manasiy, Qorasuv, Kucha, Qorashar, Xomul, Jayvan va Qunu-Turfonda joylashgan edi. Umumiyligi g'aznaning tartibiga ko'ra, muqaddas kurash tugaguniga qadar biron bir dungan o'z boyligiga ega bo'lmasa ham, har bir qo'zg'olonchi masjiddan o'ziga kerak bo'lgan hamma narsani olishga haqli edi. Dungan qo'mondonlari hech qanday moddiy afzalliklarga ega emaslar va oddiy askarlarga o'xshab olishadi. Oqsoqollarga bo'y sunmaslik uchun aybdor deb topilganlarning boshlari kesiladi. Talonchilik ham qattiq jazolanadi. Agar jang paytida dungan daladan oltin, kumush, boshqa birovning quroli yoki biror narsasini olib ketsa, shu joyda qatl qilinardi. Jangdan so'ng, mag'lubiyatga uchragan dushmanning barcha o'ljalari butunlay g'aznaga tushishi kerak edi. Kimki tamaki yoki afyun cheksa yoki sharob ichsa, u ham juda qattiq jazolanadi. Dunganlarning boshlig'i Savunning o'g'li Soxunjon hisoblanadi. U juda jasur, qobiliyatli, manjurlarni doimo

mag‘lub etardi, shuning uchun ham yosh bo‘lishiga qaramay, qo‘zg‘olonchilar orasida katta ishonchga ega.

1864 yilning yozida qo‘zg‘olonchilar tomonidan Urumchi egallanib, bu ulkan shaharning bir qismini yoqib yubordilar. Shu bilan birga, katta choy omborlari yo‘qoldi, bu davrda O‘rtta Osiyo va Rossiya imperiyasining janubiy sharqiy hududlari g‘arbiy Xitoyning asosiy savdo nuqtasi bo‘lgan va choy bilan ta‘minlangan. Urumchi to‘liq egallangach, 1864 yilning yozida dunganlar Tyan-Shanni kesib o‘tib, Kucha tomon harakatlanishdi. Kuchin tumanida bu yerda joylashgan qo‘shinlarda xizmat qilayotgan musulmonlar va dunganlar bilan birlashib, Ular shaharni egallab, yana barcha manjurlarni qirg‘in qildilar. Kucha qo‘lga kiritilgach, Xonxo‘ja Dungani tumani va shahriga bosh qo‘mondon etib tayinlandi. Turkistonning sharqiy qismidagi musulmon aholisini mustahkamlangan dunganlar Oqsuvga ko‘chib o‘tdilar. Bu yerda Manjuriya qo‘shinlarini mag‘lub etib, qo‘zg‘olonchilar shahar va qal’ani egallab oldilar. Aksu juda muhim strategik nuqta edi.

Qo‘zg‘olon harakatlarining keyingi nuqtasi Quljda 1864-yilning avgustida qo‘zg‘olon ko‘tarildi. Quldjadagi jang harakatlari avvaliga dunganlarning mag‘lubiyyati bilan kechdi. Ya’ni, shahar ko‘chalaridagi jang o‘n ikki kun davom etdi va yomon qurollangan dunganlar shahardan Eski Quldju bilan taranchilar manzilgohlariga qochib chiqishlari bilan tugadi. Dunganlarning birinchi muvaffaqiyatsizliklari muhim oqibatlarga olib keldi, bu esa Quldjaning qulashini kechiktirdi. Xitoyliklar mandjurni jon-jahdi bilan qo‘llab-quvvatlay boshladi. Shu tariqa mustahkamlangan dsan-dzyun qo‘shinlari bilan dunganlarga qarshi chiqdi. Ammo kurashda butun artilleriyasini yo‘qotdi va Quldjin qal’asiga zo‘rg‘a yetib oldi. Bu g‘alabadan keyin Dunganlar Quldjuni qo‘lga olib, qal’ani qamal qila boshladilar.

Asosan taranchi, qisman dunganlar istiqomat qilgan Ilining yuqori oqimi darhol qo‘zg‘olonchilar qo‘liga o‘tdi. 1864-yil sentyabrda qo‘zg‘olonchilar Quldjaning o‘ziga hujum qildilar, u yerda xitoyliklar musulmonlarni bir necha bor qaytargan holda, nihoyat inqirozga uchradilar va shahar qo‘zg‘olonchilar tomonidan vayron qilindi. Quldja va daryoning o‘ng qirg‘og‘i o‘rtasida joylashgan Solonskiy qo‘riqxonasida so‘nggi kuchlarini ishga solgan xitoyliklar 1866-yil martigacha Quldja qo‘rg‘onida o‘z hukumatlaridan behuda yordam kutishdi. Quldja qal’asini musulmonlar egallab olishdi, so‘ngra g‘oliblar manjurlar tomoniga o‘tgan Solons harbiy posyolkasiga o‘tishdi. Ularning qishloqlari 1866 yil may va 1867 yil yanvar oylarida talon-toroj qilindi va aholisi Borohudzir otryadi himoyasi ostida Rossiya hududiga qochib ketishga majbur bo‘ldi va u erda kichik aholi punktiga asos soldi.

Qo‘zg‘olonchilar asta-sekin manjurlar qo‘lidan Ili viloyatining ikkinchi darajali shaharlari ya’ni, Turgan, Chan-Pandzi va Bayanday qal’alarini egallab oldilar. So‘ng bu qal’ada juda ko‘p

oziq-ovqat zaxiralarini topdilar. To‘qnashuv natijasida manjurlarning eng yaxshi militsiyasi bo‘lgan chanpanlar qochib ketishdi. Sibo va solonlar esa dunganlar tomoniga o‘tdilar va dunganlar tomonidan musulmonlikni qabul qilish sharti bilan shafqat qilindilar. 1865-yil kuzida Quldjin qal’asi dunganlar tomonidan qamal qilingach, qal’a garnizoni, yonilg‘i va tuzning nihoyatda tanqisligi tufayli topshirishni taklif qildi, faqat uning hayotiga rahm qilishlarini so‘radi. Dunganlar ko‘nmadilar va so‘zsiz taslim bo‘lishni talab qildilar. Bu vaqtida Rossiya va Sin imperiyalardagi chegaralarda ham tartibsizliklar avj olgan edi. Jumladan, solonlar va qalmoqlar qochib ketganidan yoki qirib tashlanganidan keyin bo‘sh bo‘lgan hududni 1864 va 1865 yillarda bizning chegaralarimizdan qo‘zg‘olonchilarga yordam berish, kofirlarga qarshi kurashish bilan birga, bu hududlarda xitoylik va qalmiqlarni talash istagi bilan qochib, egallab olishdi. Umuman olganda chegaralardagi bu tartibsizliklar Turkistondagi qo‘zg‘alon vaqtida balkim, undan keyin ham aholining davomiy ikki mamlakat o‘rtasida chegaralarni buzib, ikki mamlakat hududi bo‘ylab ko‘chib yurishlari kuchayib ketdi. Masalan, 1865 yilda Tekesda istiqomat qilgan Olot qabilasining qalmoqlari xitoyliklarga yordam bergani uchun qo‘zg‘olonchilar tomonidan mag‘lubiyatga talon-toroj qilingan va ular bizning hududimizga qochib ketgan deb xabar yozilgan Nikolay Mixaylovich Prjevalskiy o‘z hisobotlardan birida.

Qo‘zg‘olonchilarning rahnomolari asosan dindorligi bilan tanilgan insonlar edi. Masalan, avvaliga Quldjadagi faxriy mulla Yag‘ur-oxuv, undan so‘ng sulton, Mazam bo‘lgan bo‘lsa, qo‘zg‘olondan oldin Ili musulmon qishlog‘ining hokimi Maxzametxon edi. Xitoyliklar qo‘zg‘olondan olti oy oldin musulmonlarni shafqatsiz jazolar bilan qo‘rqtishni o‘ylab, xitoyliklar arzimas bahonalar bilan o‘nlab eng hurmatli musulmonlarni qatl etildi. Oqibatda, qo‘zg‘olon musulmon boshliqlari o‘rtasida oldindan tuzilgan, yashirin kelishuvga ko‘ra, 1864-yil sentabrda Ili vodiyining barcha shaharlarida bir vaqtida bo‘lib o‘tdi. Yangi Quldjadagi qo‘zg‘olonchilarning boshlig‘i bu shahar musulmon aholisining boshlig‘i Abdurasul- amir edi. Qo‘zg‘olon avjida qamoqdan ozod bo‘lgan va qo‘zg‘oloni tinchlantirishni o‘z zimmasiga olgan Mazan Xon xitoyliklarni aldab, qo‘zg‘olonchilarga qo‘silib, ularning rahnamosiga aylandi. Abdurasul amir, uning hiyla-nayrangiga ko‘ra o‘ldirildi. Natijada 1865 yil yozida esa Mazan Xonning o‘zi Bayandani qo‘lga kiritilgandan so‘ng, Kure shahriga yo‘l olib, tunda andijonlik Pochi tomonidan o‘z chodirida va qo‘sini orasida xoinlik bilan o‘ldirilgan.

Dunganlarning keyingi rahnamosi ham uzoq vaqt yo‘lboshchi bo‘lmadi Malchjet-ahun taranche egalladi. Uning qo‘l ostida Xitoyning Quldja qal’asi olindi. 1866 yilda u Quldjaning oxirgi sultonı Alyaxon tomonidan asirga olinib, tikilgan qopda daryoga tashlandi. Sultan Alyaxon yoki Abil-O‘g‘li qo‘zg‘olonga qadar nufuzli shaxs bo‘lib, Mazamxon qo‘l ostida katta o‘rin egallagan va o‘limidan so‘ng kuchli va ko‘p sonli partiya tuzib, uning yordamida

hokimiyatni qo‘lga kiritgan edi. Umuman olganda, qo‘zg‘olon yakuniga qadar isyonchilarning o‘zaro ichki siyosatida ham hokimiyat uchun kurash avj organ edi. Bu esa o‘z navbatida ushbu hududlarda jumladan Ili vodiyida Taranchi sultonligi tashkil topishiga sharoit yaratdi.

Qo‘zg‘olon Chuguchakda ham aks sado berdi. Butun shahardagi tartibsizliklar manjurlar va dunganlarni bir-birlariga qarshi hushyor bo‘lishga majbur qildi. Bundan tashqari, 1865-yilgacha jamoat tinchligi buzilmadi, ehtimol, Chuguchakda dunganlar ko‘p bo‘limganligi sababli. shu yilning 15-yanvarida dunganlar manjur amaldorlariga musulmon masjidiga borishni va u yerda manjurlar dunganlarga qarshi hech qanday dushmanlik harakati qilmasligi to‘g‘risida o‘zaro qasamyod qilishlarini taklif qildilar Qa’la qo‘mondoni (xebe-ambon) va boshqa bir general (ambon), Quldidan kelib, uni shubha ostiga qo‘yish uchun, dunganlarning taklifini qabul qildilar. Qadimdan rasm bo‘lgan-dek, masjidga kirib kelgan sakkiz nafar qalmoq oqsoqoli va Chug‘uchakning barcha e’tiborli kishilari omborlar bilan masjidga kirib keldilar. Dunganlar ularni masjidga chaqirib, qal’aga tashlanib, qurol-yarog‘ va poroxni olib, manjurlarni o‘ldira boshlashdi. Hibsga organ dunganlarga qarshilik ko‘rsatgan keksa hebe-ambon masjidda o‘ldirildi; qalmoq oqsoqollari musulmon bo‘lishga qasam ichgani uchun shafqat qilindi; amaldorlarning aksariyati qirib tashlandi. Chug‘uchak ko‘chalarida ikki kun talash davom etdi; biroq masjiddan qutulib qolgan yosh omborchining g‘ayrat-shijoati tufayli manjurlar qal’aga qamalib olishga muvaffaq bo‘ldilar. Dunganlar qamalni boshlab, o‘zlarining asosiy omborlarini masjidda qurdila.

Bu vaqtida Rossiya imperiyasining o‘z chegaralarida yuz bergan hodisalarga pozitsiyasi qanday edi? Albatta, Sin imperiyasi bir qancha Rossiyadan yordam berishini so‘rab murojaat qildi. Lekin, 1864-yil 19-dekabr va undan keyin G‘arbiy Sibir general-gubernatori A. O. Dugamel Peterburgda bo‘lib, Omskga, o‘zining A. Kroyerus shtab boshlig‘iga telegramma yubordi. Unga ko‘ra, imperator Aleksandr II ministrlarning fikriga qo‘silib, "manjurlar va dunganlar o‘rtasidagi kurashga to‘g‘ridan-to‘g‘ri aralashmaslik, faqat chegaralarimizning xavfsizligi va osoyishtaligi shuni talab qilsa shu holatda harbiy harakatlarga kirishishni ta’kidlaydi". Bu oliy irodani general Kolpakovskiyga yetkazing," - deb buyurdi Dyugamel.

Chuguchak egallanish arafasida dungan tarafdarlari safida kurashga qirg‘izlar o‘tgan yilning 23-oktyabridan 24-oktyabriga o‘tar kechasi Kegen qalmiqlar va manjurlarning kattagina otryadini boshlab, kutilmaganda bayt-jigitlarga hujum qildi, ularning qishloqlarini egallab oldi va xabe-ambanyaning buyrug‘ini tom ma’noda bajarib, himoyasiz qirg‘izlarni boshdan-oyoq kaltaklay boshladi. Kim uxlasa, mol-mulkini o‘ylamay, ko‘z tikgan tomonga qochib qolardi. Qalmoqlarning yovvoyilar bazmi uch kun davom etdi. Qalmiqlar olib ketish mumkin bo‘lgan

hamma narsani o‘zлari bilan olib ketar, tashish uchun noqulay bo‘lgan narsalarni gulxanlarga solib yoqib yuborardilar.

Bundan bir hafta muqaddam men Semipalatinsk oblastidan maktub oldim, unda dunganlar Quldja qal’asiga hujum qilib, barcha manjurlarni qirib tashlagani va Quldjaning katta qismi yonib ketgani xabar qilingan edi. Dzyan-szyun qayoqqa g‘oyib bo‘lgani hozircha noma’lum. Quldja qal’asi olingandan keyin Ili viloyatining manjuriyalik ma’murlari qo‘lida faqat uchta punkt, jumladan, Sayramnora ko‘li bo‘yida joylashgan Talkin dovonidagi favqulodda muhim istehkom - Lyau-Sagun qoldi deb xabar berishadi komissiya a’zolari.

Xulosa qilib aytganda, “Musulmonlar qo‘zg‘oloni” nafaqat Xitoy tarixida balkim, Dunyo tarixiga dunyo siyosiy xaritasini biroz o‘zgarishiga sabab bo‘ldi. Ya’ni qo‘zg‘olon natijasida Sharqiy Turkistonda kichik mustaqil davlatlar, jumladan Yoqubbek rahnamoligida Qashqar, Abil og‘li rahnamoligida esa, Taranchi sultonligi tashkil topdi. Bu davrda geosiyosiy maydonda ushbu hududlar G‘arb mamlakatlari uchun juda dolzarb hisoblangan. Sababi aynan iqtisodiy jihatdan Angliya ham Rossiya imperiyasi ham o‘z ta’sir doiralarini Sharqiy Turkiston mintaqasida o‘rnatish uchun raqobat olib borganlar. “Musulmonlar qo‘zg‘olon”ning kelib chiqishining asl sababi Sin imperiyasining olib borgan keskin siyosati sabab bo‘ldi. Oqibatda, Sharqiy Turkiston hududida manjurlar hokimiyatini tugallanishiga sabab bo‘ldi. Oddiy aholidan tashkil topgan dunganlar g‘alabasining mohiyati esa, Sin imperiyasining zulmidan alamzada xalqning uyishgan holda harakat qilishi bo‘lsa, manjurlar mag‘lubiyatiga esa, “Afyun” urushi bilan birgalikda mamlakatning markaziy g‘arbiy, janubiy hududlarida “Taypinlar” qo‘zg‘ololnarining avj olishi bilan bog‘liqidir.

Adaiyotlar ro‘yxati

1. Туркистанский сборник том 5
2. Туркистанский сборник том 60
3. Моисеев В.А. Россия и Китай в Центральной Азии (вторая половина XIX в.-1917гг.). – Барнаул, 2003.
4. Хохлов А.Н. Дунганское восстанием в Китае 1860-1870-х годов и поездка академик в В.П. Васильева в Кульджу в 1890 году.
<https://cyberleninka.ru/article/n/dunganskoe-vosstanie-v-kitae-1860-1870-h-godov-i-poezdka-akademika-v-p-vasilieva-v-kuldzhu-v-1890-godu/viewer>
5. О дунганаах см.: Народы Восточной Азии. М.,-Л., 1965. Гл. 1. С. 419-433; Сушанло М. Очерки истории советских дунган. Фрунзе, 1967.

6. Гейнс А.К. О восстании мусульманского населения или дунгеней в Западном Китае//Известия ИРГО. Т. 2. Вып. 3. 1866. С. 75-96; Поярков Ф. Последний эпизод дунганского восстания. Верный, 1901; Сушанло М. Дунганское восстание во второй половине XIX века и роль в нем Бай Янь-ху. Фрунзе, 1959.
7. "Записка по поводу восстания дунгеней в Западном Китае, составленная г.г. Гейнсом и Гутковским"//РГИА. Ф. 86. Оп. 1. Д. 1720.
8. Туркестанский край: 1865 г. Т. XIX. Ч. 1. Ташкент, 1914. Док. № 52.
9. Туркестанский край: 1865 г. Ч. 1. Ташкент, 1914. Например: Тихонов Д.И. Характер народно-освободительных движений в Синьцзяне в XIX и первой трети XX в./Советское востоковедение. Т. 5. М.,-Л., 1949.
10. Условия сохранения национальной идентичности дунган в условиях глобализации. Машанло. К. Исследователь. 2019 г. Ст 270.